

“MAKTAB STIPENDIYASI”NI BERAYOTGAN USTOZ**Avezova Sadbarxon Abdumajitovna***Farg‘ona shahar 28-umumta‘lim maktabining rus tili o‘qituvchisi***Zarina Axmedova Muzaffar qizi***O‘zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti xalqaro jurnalistika yo‘nalishi talabasi*

USTOZ, O‘QITUVCHI, MURABBIY! Bu so‘zlar zamirida, o‘z hayotini ta‘lim-tarbiyaga baxshida etgan fidoyi insonda olam-olam ma‘no mujassam, barchaning ma‘naviy ota-onasi, ilmu ma‘rifatga yo‘llovchi ziyo tarqatuvchi, eng yaqin do‘st va yo‘l ko‘rsatuvchi, mehr va odamiylik bulog‘i, o‘z sohasining zukko bilimdoni, adolat va haqiqat mezoni. Ustozlar hurmatga, qilgan xizmatlari esa tahsinga sazovordir. Shunday ekan ularni hurmat qilib, duosini olmog‘imiz darkor. Umrining teng yarmini o‘quvchilariga bag‘ishlagan, yonib-kuyib qayg‘urgan va 59 yoshida ham tinib-tinchimagan ustoz Sadbarxon Avezova Abdumajitovna 1965-yil 19-martda Farg‘ona viloyati Yozyovon tumanida tug‘ilgan. 1983-yil Toshkent shahridagi Respublika rus tili va adabiyot institutining kunduzgi bo‘limiga o‘qishga kirgan. 1988-yil institutni muvaffaqiyatli tugatib, Xorazm viloyatining Bog‘ot tumanidagi 5-umumiy ta‘lim maktabida rus tili va adabiyot fanidan o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. 1995-yil Farg‘ona shahriga oila-a‘zolari bilan ko‘chib kelib, 26-maktabda, hozirda, 28-umumiy ta‘lim maktabida birinchi toifali rus tili o‘qituvchisi bo‘lib ishlamoqda. O‘qituvchilik ota kasbi bo‘lib, bolalarga mehr berishni, ularni o‘qishga qiziqtirish kerakligini dadasidan ko‘p bora eshitganini aytadi.

Odatda har bir sinf 31 nafar bolaga mo‘ljallangan bo‘lsa, Sadbarxon ustozimizning xonalarida 36 nafar o‘quvchi tahsil oladi. Bolalar sig‘may qoladiku deyishingiz mumkin. Lekin ustozimizning qalbi keng, mehri jo‘shqin bo‘lib, kelgan o‘quvchilarni ranjitmaydi, balki qo‘shimcha parta va stullar olib keladi. Shu sinfda o‘qish uchun o‘quvchilar yig‘lab, ota-onalarini ergashtirib keladi. Siz bolaga qanchalik ko‘p e‘tibor bersangiz, uning bilim olishga qiziqishi va energiyasi tobora avj oladi. Sadbarxon opamiz har bir o‘quvchisini “mening farzandim” deb tan olgan. “Nima eksang shuni o‘rasan”- deganlaridek, bolalar ham ustozining gapini ikki qilmay, darslarda faol bo‘lib, o‘z vaqtida keladi.

Hatto, o‘quvchilari uchun suv qaynatadigan idish bilan har biriga bordoqlar ham olib qo‘ygan. Hech birini ko‘zdan qochirmay “katta tanaffus” vaqtida bolalarga limon choy qilib, kunning sovuq kunlarida xonadan sababsiz chiqarmasdan olib o‘tiradi. Bu tashabbusni qo‘llab-quvvatlaydigan ota-onalar ham bo‘lib, o‘z xohishlari bilan limon, choy va kerakli buyumlarini olib berib yuboradi. Sog‘lim avlod-sog‘lom kelajak iborasi hamma joyda bong urmoqda. Shuning uchun, Sadbarxon opa o‘quvchilarini maroqli hordiq olishiga alohida e‘tibor berib, ziyoratgohlarga, bog‘larga yoki boshqa viloyatlarga sayohatga olib boradi. Axir, har bir bolaning mas‘uliyatini olib, qo‘rqmasdan jur‘at qilishlik ayrim ustozlarning qo‘lidan kelmaydi. Kimga kerak ortiqcha “bosh og‘riq” deydid darslarini bir maromda o‘tishda davom etadi. Aksincha,

ustozimiz yoshlar bilan birga yurib, ularni qo'llab, doimo yonida turushidan energiya oladi. "Har tong erinmasdan turaman, shijoat va zavq bilan darslarga boshqacha usullarda tayyorgarlik ko'raman. Men charchamayman, balki kuch olaman"-deydi.

Davlatimizda mana shunday o'z kasbining fidoyisi bo'lgan insonlar, o'z kasbini sevuvchilar o'rniga oyligi baland bo'lishini istagan yoki doimo nimadandir norozi bo'lgan mutaxassislar ortib bormoqda. Birinchi galda, ishingni sev, jon kuydir, keyin talab qil deydigan inson yo'q. Sadbarxon ustozimiz hechqachon oyligidan nolimagani, balki o'quvchilari uchun yonidan sarflashga ham qizg'onmaydi. Buning isboti natijasida ko'rishimiz mumkinki, hatto chorakligini "5" bahoga tamomlagan o'quvchilari uchun mukofat puli ham beradi. Birinchi marta eshitayotgan bo'lishingiz amrimahol, chunki hich bir maktabda bu tashabbus ilgari surilmagan. Sadbarxon Avezova o'quvchilari uchun "Maktab stipendiyasi"ni joriy qildi. Buning natijasida o'quvchilarning shijoati, bilimga bo'lgan qiziqishi va harakatlari yanada oshmoqda.

Ota-onalar esa bundan hayratda. Chunki har bir inson farzandining orqasidan yaxshi gaplar eshitishni xohlaydi. O'qituvchilik faoliyatiga 36yil bo'lgan bo'lsa, ko'plab o'quvchilarning mehrini qozondi. Maktabni bitirib ketgan bo'lishiga qaramay, o'quvchilari tez-tez yo'qlab turishadi. Bugungi kunda ko'plab shogirtlari chet el davlatlarida tahsil olayotgan bo'lib, vatanimizga kelganlarida albatta yo'qlamasdan ketmaydi. Ustozni ro'zi qilgan, duosini olgan bola hechqachon kam bo'lmaydi, balki martabasi ko'tarilib, yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Yurtimiz kundan-kunga rivojlanmoqda. Davlatimizning sha'nini saqlab, xalqqa xizmat qilayotgan har bir insonning ortida albatta ustoz bo'ladi. Ustoz bo'lmaganda biz yozaolmasdik, o'qiyolmaslik va dunyoning mohiyatini anglamagan bo'lardik. Mana shunday o'z kasbining fidoyi insonlaridan bugungi kunning yoshlari o'rnak olishi, tajribalaridan xabardor bo'lishi kerak. Ustoz shogirdlik an'anasi tufayli, iqtidorli ustoz o'z maktabini yaratadi, o'zidan keyin bilimdon, iste'dodli shogirdlar qoldiradi, uning hayoti, umri samarli o'tgan bo'ladi. Ma'lumki, bu dunyoning rivojlanishida, insoniyatning taraqqiy etishida ustozning o'rni beqiyos. Dono xalqimiz "Ta'lim bergan ustozingga rahmat", "Ustoz-otangdek ulug'", "Usta bo'lsang ustozingni unutma" deb bejiz aytishmagan. Ustoz so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tarbiyalovchi, murabbiy, rahnamo, o'qituvchi, muallim degan ma'nolarni anglatadi. Shuning uchun yo'l ko'rsatuvchilarimizni doimo e'zozlab, avaylab yashaylik.

Qish fasli bo'lishiga qaramay, ustozim meni ko'rgani Toshkent shahriga keldi. Odatda, shogirdlar ko'rgani borishi kerak. Shaharga kelsa kelibdi-da deb, gul bilan vokzaldan kutib oldim. Bir-birimizni ko'rganimizdan quvonib ketdik. Shaharni aylandik, sayr qildik va ovqatlandik. O'zining talabalik yillarini eslab gapirib berdi. Mustaqillik metrosidan chiqib, yoshlar ijod saroyiga bordik va bir choy ustida rosa dardlashdik. Menga juda ko'p kerakli nasihatlar berdi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi. Suhbatimiz qiziqandan qizib, onasi haqida ham qisqacha gapirib berdi. Bu hikoyadan juda ta'sirlandim va yozishga qaror qildim.

Inson hayoti davomida yashar ekan, har xil sinovlar, to'siqlarga duch keladi. Anchadan beri tinchlik bermay kelayotgan bir voqeani bayon qilmoqchiman. Bu voqea

ulug' vatan urushidan oldin ya'ni 1930-yil va 2023-yillar oraliqida bo'lib o'tgan, juda ta'sirli hayotiy voqealarga asoslangan hikoya. Bir o'zbek oilasida uzoq kutilgan qizchaqaloq dunyoga keladi. Ushbu yillar kolxoz jamoalari tashkillanib, brigadirlar qattiqo'l bo'lib, kolgozchilar ustidan hukmronlik qilgan yillar edi. Qizaloqning onasi yangi chaqaloqlik bo'lishiga qaramay, daladagi ishlarga jalb qilingan. Natijada yozning jazirama issig'i ta'sir qilib vafot etadi. Allohning mo'jizasi bilan 60 yoshdan oshgan buvisiga "mehr suti" keladi va "buvi suti" bilan katta bo'ladi. Qizaloq 6 yoshga to'lganda, otasi va ikki amakisi frontga safarbar etiladi. Dadasining so'nggi so'zlari hanuzgacha qulog'ida yangraydi.

Bu so'zlar shunday edi: "Mening shirin qizim, tuxumlarni ko'p to'plab, pishirib tovoqqa solgan kuningiz kelaman". Oradan bir yil o'tar o'tmas frontdan bir varakay uchta "qoraxat" keladi. Urushda jonini fido qilgan qizaloqning dadasi Abdulloh, amakilari To'prakeldi va To'xtamatjonlar edi. Uch farzand dog'ini ko'taraolmasdan, yetmish yoshdan oshgan buvisi og'ir hastalikka chalinadi. Axir ona uchun eng ayanchli qismat bu o'z farzandlarining dog'ini ko'rish. Shu paytlar ramazon kunlari edi. Bir kuni kechki payt mo'ridan shuvillagan ovoz bilan yaltiroq, qo'l bilan ushlab bo'lmas, ta'riflashga so'z ojiz bo'lgan voqea sodir bo'ladi. Qizaloq qo'rqib ketib, buvisini uyg'otadi. Buvisi ko'zini ochib, nur taralayotgan tomonga qarab, kalimalar keltiradi va nevarasini mahkam bag'riga bosib, bu allohning mo'jizasi ekanligini aytadi. Hasta buvi o'rnidan turolmasligi sababli, oq mato yopib, duo o'qiy olmagandidan afsuslanadi. Qizaloqning ko'ziga ko'ringan narsa "Laylatur qadr" bo'lib, buvisi unga umri uzoq bo'lishini aytadi. Tez orada bu mo'jiza yana mo'ridan chiqib ketadi. Tong otgach ne ko'z bilan ko'rsinki, tollar ham egilib, xuddi salom berayotganga o'xshab qolgan edi. Oradan uch kun o'tgach buvisi ham bu dunyodan ko'z yumadi. Qizaloq esa butunlay chin yetimga aylanadi. Mahalla yetim qizni yetaklab, bir nechta xonadonlarga olib kiradi, afsuski o'sha davrda ocharchilik, og'ir kunlar bo'lganligi uchun qizni asrab olishni xohlashmaydi. Hokim ota va Hadicha ayalarni bittagina qizi bo'lib, asrab olishga rozi bo'ladi.

Qizcha ularnikida yashashni boshlaydi. Ammo uydagi barcha og'ir ishlarni, dalalardagi yumushlarni bajarar, unga yaxshi ovqatlar bermasa ham, barchasiga shukr qilib, sabr bilan mehnat qilishda davom etardi. "Och qolganda yig'lamaslik, to'yim ketsa hursand bo'lmaslik" - deb o'zini ovutar edi. Kunlarning birida Hokim otaning hovlisiga lo'li ayol kirib keladi va yetim qizni yonida o'tiradi. "Kimdir bu qizni dilini og'ritibdi, nohaqliklar qilibdi"- deydi lo'li. Shunda Hokim otaga qizining qulog'ining orqasida tangachadek oq dog' borligini aytadi. Hokim ota qizidagi dog'ni ko'rib hayratda qoladi. Demak, bu qiz bir yetimning malomatiga qolgan.

Vaqt soati kelib, qiz turmushga chiqadi. Ikki oylik kelinning erini 4 yillik harbiy xizmatga ketadi. Turmush o'rtog'ini kelishini kutib, sidqidillik bilan qaynona, qaynotasiga xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda kolxozda "Eng ilg'or ayol" nomiga ham ega bo'ladi. To'rt yil ichida ham ancha-muncha qiyinchilikka uchraydi. Bu orada qaynonasi vafot etadi. Belgilangan to'rt yil muddat tugab, eri qaytib keladi. Birgalikda yaxshi kunlari boshlanib, ko'p farzandlar ko'radi. Yerga mexr qo'ygan ayol, kolxozdan

yer olib, O'zbekistonda birinchi "pudratchi ayol" bo'ladi. O'z mehnati bilan davlat bergan "plan"ni ortig'i bilan bajarib keladi. Ammo o'sha paytlarda ham juda ko'p qarama-qarshiliklarga chidab, og'ir va mas'uliyatli vazifasini bajarishda davom etadi. Dalalardan vaqt ajratib, farzandlariga ham yetarlicha tarbiya berib, el oldida doimo yuzi yorug' bo'ladi. Esini tanib boshlabdiki, og'ir mehnatsiz kuni o'tmas, yig'lamagan kechasi bo'lmas edi.

Natijada ko'zlari ko'rmay qoladi. Shunda ham shukr qilib, ezgu niyatlar bilan davlatimiz rahbariga duolar qilib, mustaqillikka yetganimizga shukronalar qilardi. O'z davridagi qiyinchilikdan ezilib, ko'zyosh to'kardi. O'zning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'u deganlaridek, mustaqillik yillariga yetganidan armoni yo'q edi. Mehnatkash va metin jasoratli onamiz muborak 94 yoshlarida bu dunyoni tark etadi. Ammo o'zidan o'rnak oladigan darajada yaxshiliklar qoldirdi.

Ayniqsa, bir vaqtlar cho'lga zonasi bo'lgan Farg'ona viloyatidagi Yozyovon tumanidagi yerlarni o'zlashtirib, suv chiqarib, bog'u-rog'ga aylantirib, odamlarning olqish va duolariga sazovor bo'lgan. Yo'lingiz vodiy tomonga tushib qolsa albatta shafyorlardan Sanobar fermer haqida yaxshi ta'riflarni eshitasiz. Sanobar ayamizning qilgan jasorati sabr-toqatlikka, mehnatsevarlikka va vatanparvarlikka undaydi. Biz yoshlar mana shunday ayollarimiz borligidan faxrlanib, davomchilari bo'lishimiz kerak. Zero, Sanobar onamiz qilgan mehnatlarini qadrlab, asramog'imiz zarur. Bu voqealar sho'ra davrida bo'lib, boshidan juda og'ir qiyinchiliklarni o'tkazgan bir ayol hikoyasi. Biz mustaqillik davrida yashar ekanmiz, barchasiga shukronalar aytib, ilm-fanga o'z hissamizni qo'shmog'imiz darkor.

Mohiyatan, siz ham bu hikoyani o'qib ta'sirlandingiz. Ko'zimizga ko'ringan hamma narsalar ham haqiqat bo'lavermaydi. Ammo haqiqatga aylantirish bizning qo'limizda.

Ushbu maqola Sadbarxon Avezova mening ustozimga bag'ishlangan.